



# Bugungi O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy, madaniy-ma'rifiy gazeta

E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

2026-yil 21-fevral, 4-son (78)

## ЎЗБЕКISTON ПРЕЗИДЕНТИ ТИНЧЛИК КЕНГАШИНИНГ БИРИНЧИ САММИТИДА ИШТИРОК ЭТДИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Америка Қўшма Штатлари Президенти Дональд Трампнинг таклифига биноан 17-19 февраль кунлари Тинчлик кенгашининг дастлабки йиғилишида иштирок этиш учун амалий ташриф билан Вашингтон шаҳрида бўлди.

Давлатимиз раҳбари 19 февраль кuni Вашингтон шаҳрида Тинчлик кенгашининг дастлабки йиғилишида иштирок этди. АҚШ Президенти Дональд Трамп расмийда ўтказилган тadbирда Озарбайжон, Қозоғистон, Бахрай, Индонезия, Аргентина, Парагвай, Руминия, Миср, Қатар, Покистон, Венгрия, Албания, Арманистон, Вьетнам, Камбоджа, БАА, Туркия, Кувайт, Саудия Арабистони, Исроил, Марокash ва бошқа давлатлар делегациялари раҳбарлари ҳам қатнашди. Ҳазор секторини қайта тиклаш

ва гуманитар ёрдам кўрсатиш, шунингдек, минтақада тинчлик ҳақида барқарорлиқни таъминлаш масалалари муҳокама қилинди. Давлатимиз раҳбари ўз нутқида дастлабки саммитни чақиргани учун Америка Қўшма Штатлари Президенти, Тинчлик кенгаши раиси Дональд Трампга миннатдорлик билдирди. Ўзбекистон Тинчлик кенгаши туғиш бўйича тинчликсевар ташаббусни қўллаб-қувватлагани ва уни муваффақиятли рўёбга чиқаришда амалий иштирок этишини қатъий тасдиқлагани таъкидланди.

— Ишончим комил, кенгашиши Ҳазор минтақасини иқтисодий ва ижтимоий қайта тиклаш учун қулай шароит яратишга имкон беради, — деди Шавкат Мирзиёев. Ҳазорнинг ҳар қандай ташки бошқарув механизми сектор аҳолисининг сўзсиз ички қўллаб-қувватлашига таъйини лозимлиги таъкидланди. Барча томонларнинг мувофиқлаштирилган саяё-ҳаракатлари Ҳазорни тез фурсатда қайта тиклаш учун зарур шарт-шароитлари яратишга, можаҳордан кейинги жараёнларни барқарорлаштиришга хизмат қилишига ишонч билдирилди. Давлатимиз раҳбари Ўзбекистон ўшбу ҳудудда турар жойлар, болалар боғчалари, мактаб ва касалхоналар барпо этишга имкон қадар ҳисса қўшишга тайёрлигини қайд этди. — Бизнинг учрашувимиз халқаро бирдамлик, тинчликсеварлик ва Яқин Шарқдаги вазиятни яхшилашга бўлган умумий интилишимизнинг ёрқин ифодасидир. Биз Яқин Ҳазорни — иқтисодий ва фаровон, аҳоли учун муносиб турмуш шароитларига эга бўлган минтақани барпо

этиш учун ўшбу тарихий имкониятдан фойдаланишимиз зарур, — деди Шавкат Мирзиёев. Тadbирда бошқа хоржий мамлакатларнинг давлат, ҳукумат ва ташки сийсий идоралари раҳбарлари ҳам сўзга чиқдилар. Йиғилиш якунида Тинчлик кенгаши фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисидаги декларация имзоланди. Шу билан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Америка Қўшма Штатларига амалий ташрифи якунланди.

Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак. Шавкат МИРЗИЁЕВ



Bahodir XOLLIQOV, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, professor.

## ЎЗБЕКISTON РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ТИНЧЛИК КЕНГАШИНИНГ БИРИНЧИ САММИТИДАГИ НУТҚИ

Мухтарам Дональд Трамп Жаноби Олийлари! Хурматли саммит иштирокчилари! Авваламбор, Америка Қўшма Штатлари Президенти Дональд Трамп Жаноби Олийларига Тинчлик Кенгашининг инаугурация мажлисини ташкил этгани учун чин дилдан миннатдорчилик изҳор этмакан. Хен шубҳасиз, бугунги саммит бу Президент Трампнинг сийсий иродаси ва прагматизми натижасидир. Ўзбекистон Тинчлик кенгашини туғиш

бўйича тинчликсевар ташаббусни қўллаб-қувватлади ва унинг муваффақиятли амалга оширилиши борасида ўзининг амалий иштирокини қатъий баён этди. Ишончим комил, Кенгашиши Ҳазор минтақасини иқтисодий ва ижтимоий қайта тиклаш учун қулай шароит яратишга имкон беради. Шу билан бирга, Ҳазорнинг ҳар қандай ташки бошқарув механизми сектор аҳолисининг сўзсиз ички қўллаб-қувватлашига таъйини лозим.

Барча томонларнинг мувофиқлаштирилган саяё-ҳаракатлари Ҳазорни тез фурсатда қайта тиклаш учун зарур шарт-шароитлари яратишга, можаҳордан кейинги жараёнларни барқарорлаштиришга хизмат қилди. Таъкидлаб айтмакчи, Ўзбекистон ўшбу ҳудудда турар жойлар, болалар боғчалари, мактаб ва касалхоналар барпо этишга имкон қадар ҳисса қўшишга тайёр. Хурматли дўстлар! Ўшбу саммит Дональд Трамп номи-

даги Тинчлик институтида ўтказилганда раъсий маъно муҳасам. Бизнинг учрашувимиз халқаро бирдамлик, тинчликсеварлик ва Яқин Шарқдаги вазиятни яхшилашга бўлган умумий интилишимизнинг ёрқин ифодасидир. Биз Яқин Ҳазорни — иқтисодий ва фаровон, аҳоли учун муносиб турмуш шароитларига эга бўлган минтақани барпо этиш учун ўшбу тарихий имкониятдан фойдаланишимиз зарур. Эътиборингиз учун раҳмат.



## Италиянинг Roma Tre университети билан ҳамкорликнинг янги yo'nalishlari belgilab olindi

2026-yil 18-fevral kuni Italiya poytaxti Rim shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iroqbo'y Sharipov Italiyaning Roma Tre universiteti rektori, professor Massimiliano Fiorucci bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuv davomida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda gumanitar fanlar, huquq, xalqaro munosabatlar, iqtisodiyot, tabiiy fanlar va madaniyatlararo tadqiqotlar kabi yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish istiqbolari ko'rib chiqildi. Jumladan, qo'shma ta'lim dasturlari, ikki tomonlama diplomlar, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, yozgi maktablar va qisqa muddatli akademik kurslarni tashkil etish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Tomonlar, shuningdek, Yevropa Itifoqining Erasmus+ va Horizon Europe dasturlari doirasida qo'shma loyihalarni faollashtirish, o'zbek professor-o'qituvchilari uchun Italiya universitetlarida malaka oshirish kurslarini tashkil etish yuzasidan hamkorlik qilishga qiziqish bildirdi. Uchrashuv yakunida ikki tomonlama aloqalarni izchil rivojlantirish, universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish va amaliy loyihalarni tezkor yo'lga qo'yish yuzasidan kelishuvga erishildi.

## Denovdagi nufuzli institut xalqaro miqyosda

Yaqinda DTPIga Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori, siyosiy fanlar doktori, professor J.Yo.Mavlonov Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi direktori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent U.A.Rajabov, umumiy fanlar kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor U.B.Abdiev va umumiy fanlar kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sh.J.Suyunovlar tashrif buyurishdi. Mehmonlarni DTPI rektori O.A.Ruziyev kutib oldi. Mehmonlar dastlab RIMda bo'lishib, talabalarning puxta bilim olishlari maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. "Kelajakka qadam" markazida o'z-o'zini ish bilan band qilish xususida ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Institutda tashkil etilgan "O'lkashunoslik muzeyi"da, Hind markazida bo'lishib, talabalarning ta'lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar va muzey eksponatlarini ko'zdan kechirishdi. Shundan so'ng hamkorlik memorandumı imzolandi.



## Sun'iy intellekt hamda inson tafakkuri: zamon talabi va mas'uliyat

Bugungi globalashuv va raqamli taraqqiyot davrida sun'iy intellekt insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ilgari faqat ilmiy-fantastik asarlarda uchraydigan "aqlii mashinalar" bugun kundalik turmushimizda faol ishtirok etmoqda: ular axborotni tahlil qilmoqda, qaror qabul qilishda ko'maklashayotir, maslahat berib, murakkab jaryonlarni boshqarmoqda. Bu holat texnologiya va inson tafakkuri uyg'unlashuvining yaqqol ifodasidir.

Keyingi yillarda dunyoda axborot hajmi misliiz darajada oshdi. Tahlillarga ko'ra, mavjud raqamli ma'lumotlarning qariyb 90 foizi so'nggi besh-o'tti yil ichida yaratilgan. Inson tafakkuri bunday ulkan axborot oqimini qisqa vaqt ichida saralash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga jismolan uqura olmaydi. Ana shunday sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalari inson aql-idrokini to'ldiruvchi, uni yanada samarali ishlashga yo'naltiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayni vaqtda sun'iy intellekt qidiruv tizimlari, avtomatik tarjima dasturlari, virtual yordamchilar, tavsiya beruvchi platformalar, bank va sanoat tizimlari, uchuvchisiz uchuvchi apparatlar hamda haydovchisiz transport vositalariga keng qo'llanilmoqda. Masalan, zamonaviy qidiruv tizimlari bir soniya ichida milliardlab so'rovlarni tahlil qilib, foydalanuvchiga eng mos natijani taqdim etish imkoniyatiga ega. Buning natijasida inson vaqt va resursni tejab, strategik fikrlash, tahlil va jo'g'oga ko'prog'e libor garatmoqda. Sun'iy intellekt mohiyatan shunchaki texnik vosila emas, inson tafakkuriga xos bo'lgan o'rganish, rejalashtirish, yo'nalish berish, xulosa chiqarish, muloqot va qaror qabul qilish jaryonlarini modellashtirishga qaratilgan murakkab ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlar asosida mustaqil o'rganish, xatolardan saboq chiqarish va optimal yechimlarni tanlab etish qobiliyatiga ega. Bu esa uning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

# Denovdagi nufuzli institut xalqaro miqyosda

(Давоми. Бошлангич 1-бетда.)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 apreldagi "Surxondaryo viloyatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish va yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"dagi PQ-4681-son qarori bilan tashkil etilgan. Shu yo'lda Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ham izchil braqqiyot sari dadil odimlamog'da.

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (keyingi o'rinlarda - Institut) tarkibida hozirgi kunda 4 ta fakultet va 16 ta kafedra faoliyat ko'rsatadi.

Professor-o'qituvchilar soni 329 nafarni tashkil etib, shundan 9 nafar fan doktori (DSc), 78 nafar fan nomzodi (PhD), 4 nafar professor, 27 nafar dotsent, 81 nafar katta o'qituvchi, 130 nafar assistent o'qituvchilar bo'lib, ilmiy salohiyat 30 foizni tashkil etadi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talabalar soni bugungi kunda 8058 nafar. Shundan talaba-qizlar 3840 nafarni tashkil etadi. Jumladan 2024/2025-o'quv yilida 2000 nafar ga yaqin talaba bitirgan bo'lsa 2025-2026 o'quv yilida 2113 nafar talabalar qabul qilindi. Shundan

kunduzgi talabalar 1596 nafar, (shundan talaba-qizlar 1136 nafar) kechki ta'limda 208 nafar, masofaviy ta'limda 102 nafar hamda magistratura ta'lim yo'nalishiga 207 nafar talaba qabul qilindi.

Institutda bugungi kunda bakalavriat ta'lim yo'nalishida jami — 8058 nafar talabalar tahsil olishmoqda.

Bugungi kunda institutda mavjud 3 ta o'quv binosi, 117 ta o'quv auditoriyasi, jumladan, 23 ta ma'nuz xonasi, 66 ta amaliy mashg'ulotlar, 18 ta seminar, 12 ta laboratoriya, 3 ta sport zali va 2 ta katta stadionlar, 2 ta mini-stadion, 1 ta voleybol, 1 ta basketbol, 1 ta gandbol, 3 ta workout, 3 ta yugurish yo'lagi (yengil atletika) zamonaviy talablarga mos ravishda ta'mirlanib, to'liq tayyor holatga keltirildi.

Barcha binolarda barqaror Wi-Fi zonalar yaratilgan, audio-byular intermet tarmog'iga ulangan, o'quv jarayonlarini masofadan kuzatish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu esa ta'lim sifatini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, 74 ta smart doska, 6 ta videoproektor, 1125 ga yaqin kompyuterlar bilan ta'minlangan 14 ta kompyuter sinfi va 12 ta o'quv laboratoriyasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash ustovrov vazifasida

belgilangan vazifalarga muvofiq institutda professor - o'qituvchilar soni 294 nafarni tashkil etadi. Shulardan 9 nafar fan doktori (DSc) va 82 nafar falsafa doktori (PhD) hisoblanadi. Institut ilmiy salohiyati 27,3% ni tashkil etadi.

Institutda 2025-yil birinchi yarmida 2 nafar fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga hamda 10 nafar professor-o'qituvchi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan. Shuningdek, institutning 5 nafar mustaqil izlanuvchilari ham falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'ldilar. Institutda ilmiy sohani rivojlantirish bo'yicha madsadli ko'rsatkichlarda belgilangan reja ga muvofiq yil yakuniga qadar jami 35 nafar dissertatsiya himoyalari rejalashtirilgan.

Institutda ilmiy salohiyat 27,3 foizni rivojlantirish tashkil bo'yicha etadi. Institutning maqsadli ko'rsatkichlar va yo'l xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib, yoshlari va professor o'qituvchilarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish, doktorantura o'rinlarini oshirib borish, ilmiy kengashlar ochildir, respublika va xorijiy olimlarni jalb qilish vazifalari belgilangan. Institutda ilmiy salohiyatni 2026-yilda 44 foizga va 2027-yilda 60 foizga oshirish vazifalari belgilangan. Professor-o'qituvchilarning ilmiy nashrlarda (shu jumladan xorijiy ilmiy nashrlarda) materiallar, maqola va



monografiyalarni e'lon qilishning maqsadi ko'rsatkichlarga muvofiq natijadorligi. Institutni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarda belgilangan nashr ko'rsatkichlarini oshirish uchun bo'liyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan 30 ta scopus hamda hamkor xorijiy o'ly ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 3 ta scopus bazalariga kiruvchi ilmiy jumalardan maqolalar chop etilgan. Bundan tashqari respublika anjumanlarida 125 ta, xalqaro anjumanlarda 220 ta, mahalliy OAK jurnallari 200, xorijiy OAK jurnallarida 190 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Monografiyalar soni 24 dona institut professor-o'qituvchilari tomonidan chop etilgan.

80 dan ortiq xorijiy davlatlar universitetlari bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan bo'lib, o'zaro hamkorlik o'quv jarayoni hamda ilmiy-tadqiqot sohasiga tatbiq qilingan:

- Rossiya Federatsiyasi Oliy davlat universiteti bilan hamkorlikda (1+1) magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi imzolandi va 15 nafar magistrant tahsil olmoqda;
- Rossiya Federatsiyasi Novosibirsk davlat universiteti bilan hamkorlikda (1+1) magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi imzolandi va 15 nafar magistrant tahsil olmoqda;
- Rossiya, Afg'oniston, Qatar, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Janubiy Koreya,

Tojikiston va Qozog'iston davlatlaridagi nufuzli oliygoahlar bilan o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

- Times Higher Education xalqaro reytingida ilk bor "Reporter" sifatida qayd etildi;
- Institut GREENMETRIC xalqaro reytingida 1355-o'inni egalladi;
- Institut Round University Ranking (RUR) xalqaro reytingida ilk bor ishtirok etib 1099-o'inni egalladi;
- Institut SUN (Buyuk Ipak yo'li universitetlari tarmog'ida a'zo hisoblanadi);
- So'nngi 3 yilda 125 nafar professor-o'qituvchilar xorijiy o'ly ta'lim muassasalarida stajirovka bo'lib qaytgan.

Xorijiy o'ly ta'lim muassasalari bilan talabalar almashinuvi Rossiya Federatsiyasi ulushiga 5 nafar, Yaponiyaga 1 nafar, Qozog'istonga 2 nafar, Indoneziyaga 2 nafar, Turkiyaga 2 nafar, Tojikiston Respublikasiga 9 nafarni tashkil qiladi.

2023-yil 23-iyunda Hindistonning Toshkentdagi favqolotta va muxtor elchisi Manish Prabhat DTPIga tashrif davomida institutda Hind o'quv xonasini ochib berdi.

- 2023-yil 23-iyunda Hindistonning Toshkentdagi favqolotta va muxtor elchisi Manish Prabhat DTPIga tashrif davomida institutda Hind o'quv xonasini ochib berdi.
- Xorijlik talabalar 8 nafarni tashkil etadi;
- Institutda rus, koreya, hind, tojik, turk o'quv markazlari faoliyat yuritadi.
- O'tgan vaqt mobaynida iqtidorli talabalarimizdan 4 nafar Prezident stipendiyasi, 4 nafar Islom Karimov nomidagi Davlat stipendiyantlari, 10

nafar Alisher Navoiy nomidagi Davlat stipendiyantlari, 2 nafar Mirzo Ulug'bek nomidagi Davlat stipendiyantlari, 2 nafar Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Davlat stipendiyantlari sovrindorlari bo'lishgan (jami stipendiantlari). Undan tashqari 39 nafar talaba viloyat hokimi stipendiyasiga, 72 nafar talaba rektor stipendiyasiga va zavor bo'lishgan va 6 nafar Mirzo Ulug'bek vorislari ko'rik tanlovda faol ishtirok etib viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

2023-yil sentyabr oyidan institutda Axborot-resurs markazi o'z faoliyatini boshlagan. Axborot-resurs markazida hozirgi kunda 3 ta Axborot-tesonloqiyalari xonatalari faoliyat yuritmoqda. Axborot resurs markazi 350 nafar kitobxona xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda ARM fondi 14 387 nomda 33 435 sondagi adabiyotlardan iborat. Shulardan 242 nomda 659 dona siyosiy adabiyotlar, 323 nomda 1 117 dona ilmiy adabiyotlar, 3 754 nomda 6 496 dona badiiy adabiyotlar, 5 578 nomda 12 136 dona o'quv adabiyotlar, 1 256 nomda 3631 dona xorijiy adabiyotlardan iborat.

160 nomda 400 dona QR-kodli adabiyotlar mavjud. Audio kitoblari javoni — 2 050 dona.

Axborot-resurs markazidagi mavjud adabiyotlarning barchasi elektronlashtirilgan.

Kitobxonlarga masofaviy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda ARM fondi 33 435 dona adabiyotni tashkil etadi. Shulardan 6 496 dona badiiy adabiyot, 9 396 dona darslik va 12 136 dona o'quv qo'llanmalar, 5 407 dona boshqa adabiyotlardir.

Axborot-resurs markazida 115 dona kompyuter mavjud bo'lib, talabalar uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Barcha kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan.

Kompyuterlar internet, elektron kataloglar, ma'lumotlar baza si hamda Oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda axborot almashinuvi ham yo'lga qo'yilgan. Kompyuterlardan foydalanish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Bir vaqtning o'zida institut Axborot-resurs markazida institutning rasmiy sayti <https://dtpi.uz> hamda Unilibrary.uz elektron kutubxona tizimi barcha foydalanuvchilar uchun ilmiy va o'quv adabiyotlarni kiritish bo'yicha muntazam faoliyat yuritib bormoqda.

ARMning O'quv zali talabalar va o'qituvchilarga darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va boshqa axborot manbalarini taqdim etadi. Foydalanuvchilarning mutaxassisligi bo'yicha kerakli adabiyotlarni tezkor topib berishda yordam ko'rsatadi. Shuningdek, talabalar va foydalanuvchilar uchun tinch, yorug' muhitda o'qish, yozish, tayyorlag'lik ko'rish sharoitini ta'minlaydi.

Bunda kitob fondi, magistrantlar xonasi, tishunoslik markazi, doktorantlar xonasida barcha sharoitlar mujassamlashtirgan. Ya'ni, professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun dars mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga qulayliklar yaratilgan.

Shu bilan birga institutning yordamchi binolarida ham axborot-resurs markazi o'z faoliyatini olib bormoqda. U binolarda ham talabalar zarur adabiyotlar ta'minlangan, barcha qulayliklar yaratilgan. Bundan tashqari, institutning talabalar turar joyidagi ma'naviyat xonalarida ham talabalarimiz bo'sh vaqtlarini kitob o'qishga sarflashlari uchun badiiy adabiyotlar jamlanmasi ham joylashirilgan. Markazdagi mavjud bo'lgan barcha adabiyotlarni elektron versiyalarini qisqaca muddatda yaratish maqsadida tezkor skaner mavjud.

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Axborot xizmati**

